



“YOSH TADQIQOTCHI” ilmiy elektron jurnali

Vebsayt: <http://2ndsun.uz/index.php/yt>

JAMIYAT HAYOTIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING O'RNI

Madibekova Mavluda Oybek qizi

Andijon viloyati Yuridik texnikumi Yuridik xizmat 1-bosqich talabasi

INFO:

Qabul qilindi: 24.02.2022
Ko'rib chiqildi: 24.02.2022
Chop etildi: 25.02.2022

Kalit so'zlar: ommaviy axborot vositalari, jamiyat, mamlakat

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola jamiyat hayotida ommaviy axborot vositalarining o'rni, vazifalari, jamiyat hayotidagi roli va faoliyatini takomillashtirish to'g'risida yozilgan.

Copyright © 2021. [Creative Commons Attribution 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/) tomonidan himoyalangan

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Ommaviy axborot vositalari aholining talab va ehtiyojlarini hokimiyat idoralariga yetkazishning muhim ta'sirchan vositasiga, xalqning eng yaqin ko'makchisi va hamdardiga, demokratiya ko'zqusiga aylanishi zarur” degan so'zlari OAV roli haqida tasavvur hosil qiladi.

Kanstitutsiyada ommaviy axborot vositalari uchun alohida bob ajratilishi jamiyat hayotida ommaviy axborot vositalarining o'rni yuqori ekanligidan dalolat beradi. Ommaviy axborot vositalari orqali inson ongiga ta'sir o'tkiziladi. U orqali Konstitutsiyada belgilangan fuqarolarning asosiy huquqlari va so'z erkinliklari, erkin fikr bildirishi ro'yobga chiqadi.

“Fuqarolarning fikr, so'z va e'tiqod erkinligiga doir konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash rivojlangan demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim shartidir”.

Bunda eng muhimi ommaviy axborot vositalaridir. Shu sababli ularning oldiga vazifalar qo'yilmoqda.

Ommaviy axborot vositalarining vazifalari quyidagilardir:

- aholida tegishli fikrlarni shakllantiradi;
- bo'layotgan voqealar to'g'risida ma'lumot berib boradi;
- ko'p fikrlilik, so'z erkinligini ta'minlaydi;
- turli idoralar, siyosiy institutlar manfaatini ifodalaydi;
- fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi;
- demokratik jarayonlarning chuqurlashuviga xissa qo'shadi.

Ommaviy axborot vositalari jamiyat bilan birga rivojlanib boradi. U davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan bo'lib, o'z vazifasini to'la bajaradi, qachonki, yetarli huquqiy asoslar ta'minlangandagina. Shuning uchun OAV faoliyati mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan chetda emas. OAV ning faoliyati doimiy takomillashuvga muhtojdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasida "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi".

Har kim haqida uning roziligisiz axborot yig'ish, saqlash va foydalanish taqiqlangan. Faqatgina qonunda belgilangan hollar bundan mustasnodir. Ommaviy axborot vositalarida noto'g'ri ma'lumotlar, inson qadr-qimmat va obro'sini tahqirlovchi ma'lumotlar e'lon qilingan bo'lsa, ana shu ma'lumotlarni chop etgan nashrda bunday ma'lumotlarga raddiya berishga xaqlidir.

Jamiyat va har bir odamning axborot olishi iqtisodiy ma'naviy yuksalish garovidir. Agar qandaydir bir odam korxonada ishlab chiqarish tarmog'i haqida yanglish, noto'g'ri ma'lumotlar aytilsa, bu ularning nufuziga putur yetkazadi, huquqlari buziladi. Bo'hton ma'lumotlar, zo'ravonlik xatti-xarakatlariga da'vat etish uchun ularni e'lon qilgan ommaviy axborot vositalari sud javobgarligiga tortilishi shart.

Ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish, faoliyatini takomillashtirish uchun bir qancha ishlar qilindi. Ommaviy axborot vositalarining jamiyatimizdagi o'rnini yuksaltirish matbuot, televideniya, radio faoliyatini yanada liberallashtirish, ularning mustaqilligi va erkinligini amalda ta'minlash masalalari hayotimizni yangilash borasida oldimizga qo'ygan besh ustuvor vazifa va yo'nalishlardan biri etib belgilanishi, OAVning jamiyat hayotida munosib o'rin egallashini ta'minladi.

OAV mamlakatda olib borilayotgan islohotlarni, liberallashtirish siyosatini targ'ib qilish, ularning mohiyatini aholiga yetkazish bilan bir qatorda, ularning faoliyatiga ham islohotlar, liberallashtirish sezilarli ta'sir qilmoqda.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 5ta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, unda OAV va jurnalistlarning kasbiy faoliyatini himoyalashni kuchaytirish vazifasi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, bu muhim hujjatda OAVga belgilangan vazifalarni bajarishda katta mas'uliyat yuklandi.

Shu bilan birga, nodavlat ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, Internet tarmog'ini kuchaytirish hozirgi kunning dolzarb masalasi ekanligi davlatimiz e'tiborida bo'lib kelmoqda.

Xulasa qilib shuni aytish mumkinki OAVning jamiyat hayotidagi o'rnini va roli eng muhim yetakchiga aylanib borayotganini tushunish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Konstitutsiyaviy huquq Husanov.O.T 2020-yil
2. Kanstitutsiyaviy huquq asoslari T."Sharq" 2002
3. O'zbekiston Respublikasi Kanstitutsiyasi "O'zbekiston"NMIU"2017